

30-Noyabr, 2025-yil

**RUHIY ZO‘RAVONLIK BILAN SODIR ETILADIGAN
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA
MAHALLA YETTILIGI HODIMLARI BILAN HAMKORLIK**

Odilov Muhammadamin Shavkatbek o‘g‘li

Yakkasaroy tumani IIO FMB

1-sonli IIB XPB boshlig‘i mayor

Qurbonov Elyorbek Dilshodbek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

3-o‘quv kursi kursanti

elyorqurbonov37@gmail.com

Annotatsiya: *Ruhiy zo‘ravonlik – bu insonning psixologik holatini buzuvchi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotuvchi, qo‘rquv va stressga olib keluvchi harakatlar to‘plami. U jismoniy zo‘ravonlikdan farqli o‘laroq, ko‘pincha iz qoldirmaydi, ammo oqibatlari ancha og‘ir bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston qonunchiligida ruhiy zo‘ravonlik oilaviy, mehnat va boshqa munosabatlarda huquqbuzarlik sifatida belgilangan bo‘lib, uni oldini olish jamiyatning har bir davlat organi shuningdek har bir fuqaro uchun muhim vazifadir. Ushbu maqolada ruhiy zo‘ravonlikning turlari, huquqbuzarlik shakllari va ularning profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi hodimlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari hamda usullari haqida so‘z yuritamiz.*

Kalit so‘zlar: *Profilaktika, Mahalla yettiligi, Ruhiy zo‘ravonlik, Umumiy, Maxsus, Yakka va Viktimologik Profilaktika, Ijtimoiy profilaktika, Ichki va Idoralararo Hamkorlik, Strategik rejalar.*

Аннотация: *Психологическое насилие – это совокупность действий, которые нарушают психологическое состояние человека, разрушают его уверенность в себе, вызывают страх и стресс. В отличие от физического насилия, оно часто не оставляет следов, но последствия могут быть гораздо более серьёзными. Законодательство Узбекистана определяет психологическое насилие как преступление в семейных, трудовых и иных отношениях, и его профилактика является важной задачей каждого государственного органа в обществе, а также каждого гражданина. В данной статье мы расскажем о видах психологического насилия, формах преступлений, а также об основных направлениях и методах организации работы с сотрудниками махаллинской семёрки по реализации их профилактики..*

Ключевые слова: *Профилактика, Седьмой район, Психологическое насилие, Общая, Специальная, Индивидуальная и Виктимологическая профилактика, Социальная профилактика, Внутреннее и межведомственное сотрудничество, Стратегические планы*

Annotation: *Psychological violence is a set of actions that disrupt a person's psychological state, destroy his self-confidence, and cause fear and stress. Unlike physical violence, it often leaves no trace, but the consequences can be much more serious. The legislation of Uzbekistan defines psychological violence as a crime in family, labor, and other relationships, and its prevention is an important task for every state body in society, as well as every citizen. In this article, we will talk about the types of psychological violence, forms of crime, and the main directions and methods of organizing work in cooperation with the employees of the mahalla seven in implementing their prevention.*

Keywords; *Prevention, Neighborhood Seven, Psychological Violence, General, Specific, Individual and Victimological Prevention, Social Prevention, Internal and Interdepartmental Cooperation, Strategic Plans..*

Bugungi kunda jamiyatimizda eng ko‘p uchraydigan, lekin eng kam muhokama qilinadigan zo‘ravonlik turi – bu ruhiy zo‘ravonlikdir. Agar jismoniy zo‘ravonlik tanada ko‘rinadigan jarohat qoldirsa, ruhiy zo‘ravonlik odamning ichki dunyosini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini, ruhiy salomatligini asta-sekin vayron qiladi. Ko‘pincha bu zo‘ravonlik iz qoldirmaydi – ko‘karish, sinish, qon ketish yo‘q. Ammo uning oqibati ancha og‘ir: depressiya, tashvish, o‘z joniga qasd qilish urinishlari, hatto butun hayot davomida davom etadigan ruhiy holatining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin

Ruhiy zo‘ravonlik – bu bir insonning boshqasining his-tuyg‘ulariga, qadr-qimmatiga va shaxsiy chegaralariga qasddan yoki beparvolik bilan zarar yetkazishi. U oilada (er-xotin, ota-ona va bola o‘rtasida), ish joyida, do‘stlar orasida, hatto ijtimoiy tarmoqlarda ham uchraydi.

**RUHIY ZO‘RAVONLIK OSTIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASI TUSHUNCHASI UNI MAHALLA YETTILIGI DARAJASIDA
OLDINI OLISH**

• O‘zbekiston Respublikasida oiladagi ruhiy zo‘ravonlik (psixologik zo‘ravonlik) jiddiy ijtimoiy muammo sifatida e‘tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasida shu yo‘nalishda qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga ko‘ra, ruhiy zo‘ravonlik ham alohida tur sifatida belgilangan va unga qarshi choralar ko‘rish majburiydir.

Ruhiy zo‘ravonlikka quyidagilar kiradi:

- doimiy tahdid qilish, kamsitish, haqorat qilish;
- ijtimoiy izolyatsiya qilish (qarindoshlar, do‘stlar bilan aloqa qilishni taqiqlash);
- bolalar oldida janjallashish, bolalarni bir tomonning “quroli” sifatida ishlatish;
- iqtisodiy bosim (pul bermaslik, ishlamaslikka majburlash) va boshqalar
- Bunday holatlar ko‘pincha yashirin kechadi, jabrlanuvchilar esa uyalib yoki qo‘rqib, murojaat qilmaydi. Shu sababli profilaktika ishlarida eng muhim roldan biri mahalla darajasiga – xususan, yangidan tashkil etilgan tashkil etilgan mahallaning “yettiligi” tizimidan boshlab o‘tdini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi .

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

RUHIY ZO’RAVONLIK OSTIDA SODIR ETILADIGAN
HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH
USULLARI

- Huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat ishlarini kuchaytirish

Fuqarolarga ruxiy zo‘ravonlikning huquqiy oqibatlarini haqida ma‘lumot berish zarur. “Ayollar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va Ma‘muriy javobgarlik kodekslarida belgilangan moddalar ommaga tushunarli tilda yetkazilishi kerak.

- Oilaviy tarbiya va madaniyatni yuksaltirish

Ruxiy zo‘ravonlik ko‘pincha oilada boshlanadi. Shu sababli, oila a‘zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, sabr, tinglash madaniyatini shakllantirish muhim. Ota-onalarning bolalar bilan muloqoti, er-xotin o‘rtasidagi tenglik tamoyili bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- Psixologik yordam tizimini kuchaytirish

Maktablar, oliygohlar va korxonalarda malakali psixologlar faoliyat yuritishi, fuqarolarga bepul maslahat xizmati ko‘rsatishi zarur. Maxsus ishonch telefonlari, anonim onlayn murojaat tizimlari orqali ruxiy tazyiqqa uchragan shaxslarga yordam ko‘rsatish samarali choradir.

- Axborot vositalari va internetda profilaktika

Ijtimoiy tarmoqlarda kiberzo‘ravonlik (masxara qilish, tahdid, tuhmat)ning oldini olish maqsadida ma‘naviy-axloqiy kampaniyalar o‘tkazish, yoshlarni internet madaniyatiga o‘rgatish lozim

- Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish

Ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish — ruxiy zo‘ravonlikka barvaqt chora ko‘rishga yordam beradi.

Bugungi kunda o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish zamonaviy jamiyatda eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri bo‘lib, bu boradagi samarali faoliyat ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ommaviy axborot vositalari nafaqat huquqbuzarlikni oldini olish, balki shaxsning huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy normalarga rioya qilish ruhida tarbiyalash, ma‘naviy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda faol ishtirok etadi.

O‘BEKISTON RESPUBLIKASINING 02.09.2019 –yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli Qonun va ruhiy Zo‘ravonlikka Qarshi Kurash

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli Qonuni mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilish yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonun xotin-qizlarga nisbatan har qanday shakldagi tazyiq va zo‘ravonlikni — jismoniy, jinsiy, iqtisodiy hamda ruhiy zo‘ravonlikni qat‘iy taqiqlaydi

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” qonun nafaqat zo‘ravonlik faktini jazolashga, balki uni oldini olishga qaratilgan. Qonun asosida:

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

- zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarga himoya orderi beriladi;
- profilaktik ishlar olib boriladi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla va ta’lim muassasalari bu borada hamkorlik qiladi.

Ruhiy zo‘ravonlikka qarshi kurash

Ruhiy zo‘ravonlikni isbotlash jismoniy zo‘ravonlikka nisbatan qiyinroq, ammo bu holat jiddiy e’tibor talab etadi. Jamiyatda bu masalada ma’naviy madaniyat, psixologik savodxonlik va huquqiy ongni oshirish muhimdir. Shuningdek, jabrlanuvchilar o‘z huquqlarini bilishlari va kerakli joyga murojaat qilishdan cho‘chimay, o‘zini himoya qilishga haqli ekanini tushunishlari lozim..

Mahalla yettiligi tarkibi (Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 21.12.2023-yildagi PF-209 da quyidagilar)

1. Mahalla raisi
2. Profilaktika inspektori
3. Ayollar faoli
4. Yoshlar yetakchisi;
5. Ijtimoiy hodim
6. Hokim yordamchisi
7. Soliq inspektori

Yettilikning ruhiy zo‘ravonlik profilaktikasidagi asosiy vazifalari

Erta aniqlash (monitoring)

- Har oy “xavf guruhlari” ro‘yxatini yangilab borish (ko‘p bolali oilalar, ajrashish arafasidagi oilalar, spirtli ichimlik iste’mol qiluvchilar oilasi va h.k.);

- Ayollar faoli va profilaktika inspektori tomonidan “uyma-uy yurish”da oila muhitini bevosita kuzatish;

- Qo‘shnilar, maktab, bog‘cha, poliklinika xodimlari orqali signal tizimi (“ko‘z-ko‘z” tizimi).

- Ruhiiy zo‘ravonlik belgilari bo‘yicha oilalarga tushuntirish ishlari

- Mahalla fuqarolar yig‘inida, “Ayollar daftari” yig‘ilishlarida, “Yoshlar daftari” uchrashuvlarida ruhiy zo‘ravonlikning zarari haqida seminarlar;

- “Zo‘ravonlik – oilani buzadi” mavzusida plakatlar, audio-rolklar, mahalla Telegram kanallarida doimiy postlar.

Zo‘ravonlik qiluvchi shaxsga nisbatan chora ko‘rish

- Profilaktika inspektori tomonidan “ogohlantirish xati”;

- Himoya orderi chiqarish (mahkama orqali 30 kungacha);

- “Tuzatish ishlari”ga jalb qilish (mahallada jamoat ishlariga, psixologik treninglarga majburlash);

- Agar ruhiy zo‘ravonlik jinoyat tarkibiga kirsa (masalan, kamsitish + o‘z joniga qasd qildirishga undash) – Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bo‘yicha ish ochish.

XULOSA

Ruxiy zo‘ravonlik — bu nafaqat shaxsiy muammo, balki ijtimoiy xavf omilidir. Unga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li — profilaktika. Har bir fuqaro, oila, ta‘lim muassasasi va davlat tashkiloti ruxiy zo‘ravonlikni aniqlash, to‘xtatish va oldini olishga mas’uldir.

Jamiyatda mehr, hurmat va bag‘rikenglik muhitini yaratish orqali biz nafaqat zo‘ravonlikni, balki u bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni ham kamaytirishimiz mumkin.

Mahalla yettiligi – bu ruhiy zo‘ravonlikka qarshi kurashda davlat va jamiyat o‘rtasidagi eng muhim ko‘prik. Ularning ishi tufayli minglab oilalar parchalanishdan, ayollar va bolalar psixologik jarohlardan himoyalanoqda. Agar siz yoki yaqiningiz ruhiy zo‘ravonlikka duch kelsa – darhol mahalla yettiligiga, profilaktika inspektoriga yoki ishonch telefoniga murojaat qilish samarali usul hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
2. ” Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun
3. ” Xotin qizlarni tazyiq va zoravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonun
4. ”Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Prezident farmoni